

UDK:911.375.3

*Temirov Zokirjon Abdilvoxidovich,  
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Abdumannobova Xilolaxon Ikromjon qizi  
Andijon davlat universiteti magistri  
Andijon davlat universiteti, O'zbekiston*

**ANDIJON VILOYATIDA O'TKAZILGAN DEMOGRAFIK  
TADQIQOTLAR TAHLILI (SOTSIOLOGIK SO'ROVNOMA ASOSIDA)**

*Annotatsiya: Maqolada Andijon viloyati aholisi demografik rivojlanishi sotsiologik so'rovnoma asosida ilmiy o'rganilgan va muhim xulosalar ishlab chiqilgan.*

*Tayanch so'zlar: demografik jarayonlar, tug'ilish, o'lim, migratsiya, aholi joylashuvi, urbanizatsiya.*

*Temirov Zokirjon Abdilvoxidovich,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Geography, Associate Professor  
Abdumannobova Khilolaxon Ikromjon kizi  
Master of Andijan State University  
Andijan State University, Uzbekistan*

**ANALYSIS OF DEMOGRAPHIC RESEARCH IN ANDIJAN REGION  
(BASED ON SOCIOLOGICAL QUESTIONNAIRE)**

*Annotation: The article scientifically studies the demographic development of the population of Andijan region based on a sociological questionnaire and develops important conclusions.*

*Keywords: demographic processes, birth, death, migration, population distribution, urbanization.*

**Kirish:** Demografik jarayonlarni o'rganishda ijtimoiy so'rov usulini qo'llash tadqiqot ishining mukammalligini ta'minlaydi. Mamlakatda demografik ko'rsatkichlarni ijtimoiy so'rovnomalar orqali muammoni atroflicha o'rganishga va yechishga ko'mak beradi.

Andijon viloyatida barcha sohalaridagi kabi demografik jarayonlar bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishi tabiiy. Hududlarda aholining har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishi aynan shu muammolar yechimiga bog'liq. Aholi tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishi va bilan bog'liq muammolarni atroflicha o'rganishda ijtimoiy so'rovnoma usulining ahamiyati katta.

### **Adabiyotlar tahlili:**

O'zbekistonda aholishunoslik, demografik jarayonlar, oila demografiyasi, aholi prognozi masalalarini so'rovnoma orqali tadqiq etish M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, X.Salimov, E.A.Ahmedov, R.A.Ubaydullaeva, O.B.Ata-Mirzaev, A.A.Qayumov, Q.X.Abduraxmonov, A.S.Soliev, L.P.Maksakova, M.R.Bo'rieva, Z.N.Tojiev, N.Q.Komilova, G.R.Asanov, Z.Raimjonov, I.Turdimambetov, R.B.Qodirov, G.A.Xodjaeva, N.J.Yembergenov va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan. Bevosita O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlarini o'rganish Z.N.Tojievning tadqiqotida atroflicha yoritilgan. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari R.B.Qodirov tomonidan olib borilgan. Biroq, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda, Andijon viloyatida demografik jarayonlarning hududiy xususiyatlarini o'rganishga doir tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan.

**Tahlil va natijalar:** Sotsiologik so'rovnoma muallif tomonidan Andijon viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, demografik ko'rsatkichlari va geografik joylashgan o'rniga tafovutga ega hududlari, turli joyda va turli kasbdagi kishilari (300 ta) tanlab olindi. So'rovnomada Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, To'rachek m.f.y., Bo'ston tumani, Yangi Obod m.f.y., Paxtaobod tumani, Sohil m.f.y., Andijon shahri, Andijon m.f.y.da yashovchi turli kasb, yosh va ijtimoiy guruhga mansub kishilar ishtirok etdi.

Sotsiologik so'rovnomaga 15 ta savol kiritildi (1-jadval).

1-jadval

Andijon viloyati aholisi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma savollari

1	Yoshingiz?					
2	Jinsingiz?					
3	Ma'lumotingiz?					
4	Necha yoshda oila qurgansiz?					
5	Farzandlaringiz soni?					
6	Oilada nechta farzand bo'lishini xohlar edingiz?	0-1	2-3	3-4	4-5	5 va undan ko'p
7	Farzandlaringiz yoshi orasidagi farq necha yilga teng?					
8	Bolalar yoshi o'rtasidagi interval qanchaga teng bo'lishini xohlaysiz?					
9	Hozirgi vaqtda oilalarda ajralishlarga asosiy sabab nimada, deb o'ylaysiz?	Qaynona-kelin o'rtasidagi munosabatlar, Xarakteri to'g'ri kelmaslik C)	Moliyaviy yetishmovchilik	Farzandsizlik, Ichkilik va giyohvandlik	Internet, uyali aloqa (ijtimoiy tarmoqlar)dan noto'g'ri foydalanish	Boshqa sabablar
10	Yoshlar necha yoshdan nikohga kirgan (oila qurgan) ma'qul?	16-20 yosh	21-25 yosh	26-30 yosh	31-35 yosh	
11	Hozirgi kunda oila qurayotgan yoshlar oila qurishga tayyor deya olasizmi va nima uchun?					
12	Oilaga tayyorlash uchun qanday ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq?	O'quv yurtlarining yuqori sinflarida maxsus "Oila maktabi" kurslarini tashkil etish, unda oila qurishga yoshlarni tayyorlab borish		Yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish lozim	FHDYo organlarida "Oila-jamiyat" mavzularida test sinovlari topshirish kerak	Tibbiy ma'lumotlarni ko'paytirish zarur
13	Yoshlarning tashqi	Ijobiy, oilada farzandlar	Salbiy, ayollarda turli	Mentalitetimizga xos xususiyatlar	Moliyaviy masalalar	Boshqa javoblar


	migratsiyasi demografik jarayonlarga qanday ta'sir ko'rsatadi, deb o'ylaysiz?	soni me'yorlashadi	kasalliklar ko'payadi	kamayadi	hisobiga oila daromadi oshadi	ringiz
14	Farzandingiz ulg'aygach qaysi kasbda ishlashini xohlar edingiz?	O'qituvchi- vrach	Dexqon-fermer	Tadbirkor-savdogar	Ishchi-xizmatchi	Huquq ni muhof aza qilish xodimi
15	Farzandingiz qaerda yashashini xohlar edingiz?	Shaharda, ko'p qavatli uylarda (domda)	Shaharda, hovli uyda (uchastkada)	Qishloqda, namunaviy uylarda (kotejlarda)	Qishloqda, oddiy hovli uyda	Boshqa javobin giz

Tadqiqot mavzusi doirasida bevosita taalluqli bo'lgan 10 ta savol o'rganilib tahlil etildi. So'rovnomada 20 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan aholi ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 36 foizi 20-30 yoshlilar, 27 foizi 31-40 yosh va 26 foizi 41-50 yosh va 11 foizi 51-60 yoshdagilar tashkil etgan. Shuningdek, respondentlarning 65 foizini ayollar va 35 foizini erkaklar, 30 foizini oliy ma'lumotli va 70 foizini o'rta va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganlar tashkil etgan.

Olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi hududlarning demografik vaziyatini aniqlash bo'lganligi sababli keyingi savollar bevosita shu xususda.

*"Oilada nechta farzand bo'lishini hohlar edingiz?"* – degan savolga respondentlarning 46 foizi 2-3 ta, 35 foizi 3-4 ta degan javobni berishgan. 10 foizi 4-5 ta va 7 foizi 5-6 ta va undan ko'p degan fikrni bildirishdi. 5-6 ta va undan ko'p deb fikr bildirganlar barchasi o'rta va o'rta mahsus ma'lumotga ega respondentlar bo'ldi. Shuningdek, ayrimlar 1 ta farzand ko'rishni hohishi borligini bildirgan. Oliy ma'lumotli respondentlarning 40 foizi 2-3 ta va 42 foizi 3-4 degan javobni berishgan. O'rta ma'lumotli respondentlarda esa bu ko'rsatkich 48 va 32 foizga teng bo'lgan. 13 foiz o'rta ma'lumotli respondent esa 4-5 javobini berishgan. Bundan ko'rinib turibdiki, asosan oilalar 2-4 ta farzand ko'rishni hohlashmoqda.

“Farzandlaringiz yoshi orasidagi farq necha yoshga teng bo‘lishini hohlaysiz?” degan savolga respondentlarning 11 foizi 2 yil, 49 foizi 2-3 yil 29 foizi 3-4 yil, 6 foizi 4-5 yil va 5 foizi 5-6 yil deb javob berishgan. Shuningdek, 50 va undan katta yoshdagi respondentlar farzandlari yoshi orasidagi farq 2 yil bo‘lganligini bildirishdi. Oliy ma‘lumotli respondentlarning 80 foizi farzandlari yoshi orasidagi farq 3 yil va undan ortiq vaqt bo‘lishini xohlashgan bo‘lsa o‘rta va o‘rta mahsus ma‘lumotlilarda bu ko‘rsatkich 75 foizni tashkil etdi. Ayollarning 78 va erkaklarning 72 foizida ham farzand ko‘rish orasidagi intervalni 3 yildan ortiq bo‘lishini hohlashadi. Hulusa shuki, kelgusida oilalarda farzandlar yoshi orasidagi farqni ortib borishi kuzatiladi.



## **Рисм-1. Andijon viloyatida psixologik-demografik jarayonlarning sotsiologik tahlili**

*Ushbu infografika Andijon viloyati aholisining o'rtasida o'rnatish sotsiologik so'rovnoma asosida barqaror bo'lib, jismoniy-demografik jarayonlarning zamonaviy holatini aks ettiradi. Tadqiqot natijalari respondentlarning yoshi, jinsi, ma'lumoti, nikoh yoshi, farzandlar soni hamda oiladagi ideal farzand modeli kabi muhim ko'rsatkichlar o'rganildi. Natijalarga ko'ra, respondentlarning 21–25 yosh oralig'ini nikoh uchun eng maqbul davr sifatida baholagan. 2–3 kishi farzand bo'lishini ma'qul deb hisoblaydi hamda bolalar eng maqbul yosh farqi 2–3 yil hisob farqi ta'kidlagan. So'rovnoma shaxsiy ajralishlarning asosiy muammolari sifatida qaynona- kelin munosabatlari, xarakter mos kelmasligi va yetishmovchilikni ko' maklashishi. Infografika hududdagi shaxsiy qadriyatlar, reproduktiv xulq-atvor va demografik tendensiyalarni ilmiyografik tahlil qilishda yuqori ahamiyat kasb etish.*

Oilada sog'lom muhitning tarkib topishi oilaning mustahkam bo'lishi, sog'lom va barkamol farzand kamol topishida asosiy omil hisoblanadi. Oilalar ajrashishi jamiyatda noto'liq oilalar ko'payishi va undagi farzandlar tarbiyasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. So'rovnomada, "Hozirgi vaqtda oilalarda ajralishlarga asosiy sabab nimada, deb o'ylaysiz?" degan savolga 20 foiz ishtirokchilar qaynona-kelin o'rtasidagi munosabatlar degan fikrni bildirgan bo'lsa, 23 foizi oilada er-xotinning "harakteri to'g'ri kelmagan"ligini, 13 foizi "ichkilik va giyohvandlik"ni, 8 foizi "moliyaviy yetishmovchilik" va yana 8 foizi "farzandsizlik" sababini keltirgan. Shuningdek, respondentlarning 4 foizi oilalar ajrashishiga uyali aloqadan noto'g'ri foydalanish natijasida deb fikr bildirgan bo'lsa, 23 foizi o'zlarinig boshqa fikrlarini bildirib o'tgan. Unga ko'ra, yoshlarni oilaga tayyor emasligi, erta nikohga kirish, ota-onaning farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizligi va ularning hayotiga jiddiy e'tibor bermasligi, to'y marosimlaridagi ortiqcha dabdababozlik va boshqa sabablar keltirilgan.

Hozirgi kunda farzandi nikohga kirgan ota-onalar, 40 va undan katta yoshdagi respondentlarning 28 foizi oilalardagi ajralishlarda yuqoridagi sabablarga qo'shilmasdan o'z fikrlarini bildirishgan bo'lsa, 20 foizi qaynona kelin munosabatlari va yana shuncha qismi yoshlar harakterining to'g'ri kelmasligi ajralishlarning asosiy sababi, deb biladi.

Yangi oila qurgan 20-30 yoshdagi so'rovnoma ishtirokchilari 21 foizi qaynona kelin munosabatlari, 33 foizi harakteri to'g'ri kelmaslik va 22 foizi boshqa sabablarni oilalar ajralishiga sabab, deb o'ylaydilar. Ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda moliyaviy yetishmovchilik, ichkilik va giyohvandlik, farzandsizlik yoki uyali aloqadan noto'g'ri foydalanish sabablari ajralishda katta sabab hisoblanmayapti. Oilalar ajralishida qaynona kelin munosabatlari, yoshlar harakterining to'g'ri kelmasligi va yuqorida keltirilgan boshqa fikrlar asosiy o'rin tutmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash vazirligi o'z vaqtida tashkil topgan bo'lib, mazkur masalalarga jiddiy e'tibor qaratishligi zarur hisoblanadi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus bilim yurtlari bitiruvchilari va oliy ta'lim talabalarining bu borada bilimlarini boyitib borish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarni erta nikohga kirishi ayrim oilalarda ajralishlarning bo'lishi, onaning farzand ko'rishga tayyor emasligi kabi muammolarga sabab bo'ladi. Shu o'rinda so'rovnoma ishtirokchilariga "*Yoshlar necha yoshdan nikohga kirgan (oilaga qurgan) ma'qul?*" degan savol bilan murojaat qilindi. Respondentlarning 10 foizi 16-20 yosh deb javob berishgan bo'lsa, 78 foizi 20-25 yosh orasida nikohga kirgan ma'qul ekanligini bildirishdi. 10 foiz respondent 26-30 yoshda nikohga kirishni ma'qul ko'rishgan bo'lsa, 2 foizi 30 yoshdan keyin nikohga kirishini bildirgan. O'zbekistonda, hususan Farg'ona vodiysi viloyatlarida ayni vaqtdagi nikohga kirish yoshi ko'pchilik uchun maqbul yosh hisoblanmoqda.

Nikohga kirayotgan yoshlarni oilaga tayyorlash, sog'lom va mustahkam oilalarni ko'paytirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozimligini bilish uchun "*Oilaga tayyorlash uchun qanday ishlarni amalga oshirish maqsadga*

*muvofiga?*” degan savol bilan murojaat qilindi. Respondentlarning 40 foizi “O‘quv yurtlarining yuqori sinflarida maxsus “Oila maktabi” kurslarini tashkil etish, unda oila qurishga yoshlarni tayyorlab borish” kerak deb fikr bildirgan bo‘lsa, 26 foizi “yoshlarni kasb-xunarga o‘rgatish lozim” deb o‘ylashadi. Shuningdek, so‘rovnoma ishtirok etganlarning 10 foizi “FHDYo organlarida “Oila-jamiyat” mavzularida test sinovlari topshirish kerak” degan javobni berishgan bo‘lsa, 11 foizi tibbiy ma‘lumotlarni ko‘paytirish zarur, 13 foizi esa o‘zlarining boshqa fikrlarini bildirishgan. Fikr bildiruvchilar yoshiga ko‘ra farq sezilmaydi, lekin oliy ma‘lumotli respondentlarning 19 foizi va o‘rta maxsus ma‘lumotli ishtirokchilarni 10 foizi o‘zlarining fikrlarini bildirib o‘tishgan. Bildirilgan fikrlar ichida oilada ota-onani farzandlarini oilaga tayyorlashdagi rolini oshirish, yoshlarni oila va nikohga jiddiy munosabatda bo‘lishi lozimligi, mahalla rolisi oshirish va boshqa fikrlar bildirilgan.

Demografik jarayonlar, shuningdek nikoh va oila munosabatlariga migratsiya jarayoni ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bugungi kunda sir emaski, ko‘plab mehnat migrantlari MDH mamlakatlari, hususan Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston Respublikasi, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlarga ketishmoqda. Ushbu holat bir tomondan oilaning moddiy imkoniyatlarini yaxshilasa, ikkinchi tomondan, bu migratsiyada asosan erkaklar ishtirok etishi noto‘liq oilalarning ko‘payishi va farzandlar tarbiyasiga salbiy ta‘sir etishi tabiiy hol. Shuningdek, oilaviy munosabatlarga ham ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu maqsadda, so‘rovnoma ishtirokchilariga *“Yoshlarning tashqi migratsiyasi demografik jarayonlarga qanday ta‘sir ko‘rsatadi, deb o‘ylaysiz?”* mazmunidagi savol bilan murojaat qilindi. Respondentlarning 30 foizi “Salbiy, ayollarda turli kasalliklar ko‘payadi”, 25 foizi “Mentalitetimizga xos xususiyatlar kamayadi”, 20 foizi “Moliyaviy masalalar hisobiga oila daromadi oshadi” va 12 foizi “Ijobiy, oilada farzandlar soni me‘yorlashadi” javobini berishdi. 13 foiz ishtirokchi o‘zlarining mustaqil fikrlarini bildirib o‘tishdi. Bildirilgan fikrlarda yoshlarning

tashqi migratsiyasiga salbiy qarashlar ko‘proq bo‘lib, oilaviy munosabatlar, farzandlar tarbiyasi kabi masalalarga salbiy ta’siri haqida fikr bildirilgan.

Ushbu savolga ayol respondentlarning 39 foizi “salbiy, ayollarda turli kasalliklar ko‘payadi” va 31 foizi “mentalitetimizga xos xususiyatlar kamayadi” degan fikrni bildirishgan. Ushbu javobni yosh oila yoshidagi 20-30 yoshli respondentlarning 20 va 28 foizi bildirishdi. Shuningdek, 50 va undan katta yoshdagi aholining 40 foizi oilaning moliyaviy daromadlari oshadi degan va 30 foizi (barchasi ayollar) salbiy, ayollarda turli kasalliklar ko‘payadi degan fikr bildirgan. Ushbu savolga aksariyat respondentlar o‘zlarining salbiy munosabatlarini bildirishi, aholi zichligi yuqori bo‘lgan Farg‘ona vodiysi viloyatlarida mehnat resurslarining bandlik darajasini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish muhimligini bildiradi.

Bugungi kunda aholining bandlik darajasini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, shuningdek, mutaxassis kadrlar tayyorlashda aholining qaysi sohada ishlashga qiziqishini o‘rganish muhim hisoblanadi. Respondentlarga *“Farzandingiz ulg‘aygach qaysi kasbda ishlashini xohlar edingiz?”* degan savol berildi. So‘rovnomada ishtirok etganlarning 34 foizi farzandlarini kelajakda o‘qituvchi va vrach kasbida ishlashni hohishini bildirgan bo‘lsa, 26 foizi huquqni muhofaza qilish hodimi, 20 foizi san’atkor, 12 foizi tadbirkor, savdogar, 4 foizi dehqon fermer va 4 foizi ishchi-xizmatchi bo‘lib ishlashini istagan. Ayollarning 31 foizi va erkaklarning 45 foizi farzandlarini o‘qituvchi va vrach bo‘lishini, 27 foiz ayollar va 22 foiz erkaklar farzandini kelajakda huquqni muhofaza qilish xodimi sifatida ko‘rishni xohlashgan. Dehqon-fermer va ishchi xizmatchi bo‘lishini ayollarning 5 foizi va erkaklarning 2 foizi istagan. Oliy ma’lumotli respondentlarning 43 foizi va o‘rta maxsus ma’lumotli ishtirokchilarning 29 foizi farzandlarini kelajakda o‘qituvchi-vrach bo‘lishiga istak bildirgan, huquqni muhofaza qilish hodimi bo‘lishini hohlaganlar 22 va 27 foizga teng bo‘ldi. Shuningdek, respondentlar ko‘proq o‘zlarining kasb-korlari va kasblarning moddiy tomonlariga e’tibor berishgan.

Aholini uy-joy bilan ta'minlashda xukumat tomonidan ko'p qavatli uylar va kottejlar qurib uzoq muddatli kreditlar asosida aholiga berilmoqda. Ota-onalarning farzandlarini kelajakda qanday joyda istiqomat qilishini bilish maqsadida *"Farzandingiz qaerda yashashini xohlar edingiz?"* savoli bilan murojaat qilindi. So'rovnomada ishtirok etganlarning 33 foizi farzandlarini shaharda hovli uylarda yashash istagini bildirgan. 23 foizi qishloqda, oddiy hovli uyda, 22 foizi qishloqda namunaviy uylarda, 15 foizi shaharda ko'p qavatli uylarda istiqomat qilishini xohlashini bildirgan. So'rovnoma ishtirokchilarini jinsi, ma'lumoti bo'yicha fikrlarida katta farq kuzatilmaydi. Lekin, yoshi bo'yicha tahlilida ayrim farqlar kuzatildi. Yosh oila a'zolari hisoblangan 20-30 yoshli respondentlar 14 foizi va 40-50 yoshdagi farzandini uy-joy bilan ta'minlashi kerak bo'lgan ota-onalarning 9 foizi shaharda ko'p qavatli uylarda yashashini hohlashgan. Mos ravishda shaharda hovli uyda yashashni xohlaganlar 36 va 30 foizga teng bo'ldi. Qishloq joyda oddiy hovli uyda yashashni xohlaganlar 20-30 yoshli respondentlarning 20 foizi va 40-50 yoshli ishtirokchilarning 28 foizi tashkil etdi. Bundan hulosa shuki, aholining ko'p qismi ko'p qavatli uylardan ko'ra hovli uylarda yashash istagini bildirishgan. Shuningdek, yoshlar ko'proq shaharda, ularning ota-onalari esa qishloq joyda, oddiy hovli uylarda yashashini hohlashmoqda.

**Xulosa:** O'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari Andijon viloyati aholisi orasida oilaviy-demografik qarashlarda an'anaviy qadriyatlar ustuvor ekanligini ko'rsatdi. Respondentlarning asosiy qismi oilada 2–4 nafar farzand bo'lishini ma'qul deb hisoblagan bo'lib, farzandlar orasidagi yosh tafovutining 2-4 yil bo'lishi tarafdori ekanligi aniqlandi. Bu holat hududda demografik jarayonlarning nisbatan barqaror va ongli rejalashtirish asosida shakllanayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida oilaviy ajralishlarning asosiy omillari sifatida qaynona-kelin munosabatlari, er-xotin xarakterining mos kelmasligi hamda yoshlarning oilaviy hayotga yetarli darajada tayyor emasligi alohida qayd etildi. Shu bois yoshlarni nikoh va oilaviy hayotga tayyorlash, "Oila maktabi" kabi maxsus ta'lim

dasturlarini joriy etish, ota-onalar hamda mahalla institutining mas'uliyatini kuchaytirish jamiyatda sog'lom va mustahkam oilalarni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

So'rovnoma natijalari tashqi mehnat migratsiyasining demografik va ijtimoiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ham tasdiqladi. Respondentlarning katta qismi migratsiya oilaviy munosabatlar, milliy mentalitet va farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir qilayotganini ta'kidlagan. Shu bilan birga, aholining farzandlari uchun ko'proq zamonaviy va nufuzli kasblarni tanlashi hamda shaharda hovli uyda yashash istagini bildirishi hudud aholisi orasida urbanizatsiya, ijtimoiy farovonlik va sifatli turmush tarziga intilish kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdurahmonov Q., Abduramanov H. Demografiya. T.: Noshir, 2011.296 b.
2. Бўриева М.Р. Демография асослари. –Т. 2001. –120 б.
3. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. –Т.: Тафаккур, 2011. –160 б.
4. Комилова Н.Қ., Солиев А.С. Тиббиёт географияси. -Т.: Истиклол, 2005. -162с.
5. Temirov Z.A. O'zbekistonning Farg'ona mintaqasida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari. Monografiya. – Andijon: Hayot nashri, 2022. – 158.
6. Bahadirovich, R. B. (2023). Experience of Foreign Countries in the Prevention of Divorces. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(3), 80-86.
7. Rabiev, B. B. (2026). Children's health in migrant families: Gender and care dynamics. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 7(2), 184–189. <https://doi.org/10.51699/cajmns.v7i2.3136>
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – Toshkent, 2023.
9. Komilova N.Q. Tibbiyot geografiyasining nazariy va amaliy masalalari. – Toshkent: Sharq, 2016. – 277 b.
10. Muhammedova N.J. O'zbekistonda aholi o'limining geografik tafovutlari. Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 20 b.

11. Soliev A.S., Axmedov E.A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Universitet, 2003. – 304 b.
12. Qodirov R.B., Temirov Z.A. Forecasts and demographic development of the population of Fergana Valley regions of Uzbekistan until 2040 // Journal of geology, geography and geoecology № 3 (30) 2021. –P. 491-499.
13. Tojjeva Z.N. O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 16 b.
14. Temirov Z.A. Development of demographic processes in the Fergana region of Uzbekistan: yesterday, today, tomorrow // Journal of geology, geography and geoecology № 4 (31) 2022. –P. 736-748. (doi:10.15421/112269)
15. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hisobot materiallari. – Toshkent, 2023.
16. United Nations Population Fund (UNFPA). Maternal and Child Health Indicators in Central Asia. – New York, 2022.